



Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, viloyatda 3 432 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda, 936 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,3 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 459 tasi (13,4 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 400 tasi (11,7 %) kiyim ishlab chiqarishga, 332 tasi (9,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 328 tasi (9,6 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 12 413,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,5 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	12 413,4	109,5
Urganch shahri	1 803,8	110,5
Xiva shahri	182,8	105,4
tumanlar:		
Bog'ot tumani	243,5	108,9
Gurlan tumani	179,4	72,3
Qo'shko'pir tumani	332,8	107,8
Urganch tumani	654,3	107,5
Hazorasp tumani	285,0	109,1
Tuproqqal'a tumani	5 708,8	110,6
Xonqa tumani	633,1	108,2
Xiva tumani	247,1	102,2
Shovot tumani	451,6	102,4
Yangiariq tumani	332,4	105,1
Yangibozor tumani	351,7	110,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (93 974,8 ming so'm), Urganch shahrida (11 570,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 097,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (108,8 %) qayd etilib ,viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 11 925,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,1 %) ni tashkil etgan. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda ishlab chiqarish hajmi 0,7 mlrd so'mni (0,01 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 397,5 mlrd so'm (3,2 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 89,5 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-may oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 36 943,8 tonna paxta tolasi (2024-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 19,1 % ga kamaygan), 62 286,4 tonna shakar (7,0 % ga kamaygan), 2 089,9 tonna o'simlik yog'i (42,3 % ga kamaygan), 17 176,3 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2,6 % ga ko'paygan) hamda 38 753 dona yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (24,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	26 815	31 239	38 753
Maxsus yengil avtomobillar, dona	8 240	9 944	16 864
Paxta tolasi, t	44 207,8	46 433,1	36 943,8
Shakar, t	90 581,8	66 995,6	62 286,4
O'simlik yog'i, t	3 288,7	6 674,3	2 089,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	26 062,5	16 742,6	17 176,3
Paxta chigiti, t	74 445,9	68 314,4	60 504,7
Paxtadan yigirilgan ip, t	12 026,6	14 850,9	21 781,0

**2023-2024-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,9 % (2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,05 % ni (2024-yilning yanvar-may oylarida 0,08 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 41,7 % (36,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,3 % (5,9 %), quyi texnologiyali 49,0 % (54,0 %)ni tashkil etgan.

Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan





Yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-may oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-may oylarida 38 753 dona “ Damas ” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,1 % ga oshdi), 16 864 dona maxsus yengil avtomobillar (69,6 % ga oshdi) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar, donada
yanvar-may oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 105,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 141,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	556,3	485,0	512,5
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	556,3	485,0	512,5
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	61,1	64,3	91,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 1,5 % ga ko'mayganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 22,7 kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 75,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	2 247 927	8 126 874	6 316 582
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv	54 012 684	83 715 193	82 424 479

bilan ta'minlash
bo'yicha
xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni
yig'ish bo'yicha
xizmatlar, ming so'm

7 744 931


13 561 944

23 739 833

**2023-2024-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 282,3 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,4 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,8 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha



statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

